

IJTIMOY TARMOQLARDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISHNING O'ZBEKISTONDAGI HUQUQIY JIHATLARI

Yuldasheva Munisa Raxmanovna

muhlisayevamuhlisa@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16416811>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqola ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishiga oid maqsadlar, yo'nalishlar, vazifalar, muammolar, tavsiya va takliflarni o'zida mujassam qilib tahlil qilingan. Ushbu maqola davomida aholida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga oid ma'lumotlarni himoya qilishga doir huquqiy bilimlarni yetishmasligi, qonunchilikdagi hamda uning ijrosidagi kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Bugungi kunda asosiy huquqbuzarliklar ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga oid ma'lumotlarning himoyasizligi natijasida sodir etilayotgani aniqlandi. Tadqiqot yakunida yuqoridagi jihatlar o'rganib chiqilib ularni hal qilish uchun tavsiya hamda takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Shaxsga doir ma'lumotlar, server, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, ijtimoiy tarmoq, tijorat tashkilotlari, huquqiy ong va madaniyat, himoya qilish, moliyaviy tafsilotlar.

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangani hech birimizga sir emas. Raqamli axborot texnologiyalari rivojlanib borgani sayin, shaxsiy ma'lumotlarga bo'lgan hujumlar hamda ularning xavfsizligi masalalariga oid bo'lgan vaziyatlar ham ortib bormoqda. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining **4-moddasiga ko'ra shaxsga doir ma'lumotlar** — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot. Ijtimoiy tarmoqlar insonlarning uzog'ini yaqin qilishi kabi foydasi bilan birga, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligiga kezi kelganda xavf tug'dirishi bilan salbiy jihatini ham o'zida namoyon qiladi. Xalqaro "Statista" statistik portali ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 5 milliardga yaqin kishi Internet tarmog'idan foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlarning odamlar ongiga ta'sirining kuchayishi, bir tomondan, ularning jamiyat a'zolari uchun qulayligi va samaradorligidan dalolat bersa-da, biroq boshqa tomondan, ijtimoiy tarmoqlar yovuz niyatli hamda tinchlik va totuvlikka raxna soluvchi ayrim shaxslarning "qurol"iga aylanib (Qi M., 2011), bormoqda. Gulyamov va Khazratkulov (2022) ta'kidlaganidek, „Raqamli transformatsiya jarayonida kiber xavfsizlik masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda“ (p.33). Bu esa bugungi kunda raqamli dunyoda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish lozimligini taqazo etadi. Shu o'rinda, shaxsiy ma'lumotlar o'z ichiga ism, familiya, telefon raqamlari, turar va yashash manzili, elektron pochta manzillari, kredit karta ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni qamrab oladi. Ijtimoiy tarmoqlarda undan foydalanuvchi shaxslar shaxsiy ma'lumotlarini o'z ixtiyorlariga ko'ra yoki aksincha qoldiradilar. Bu esa, shaxsga doir ma'lumotlarning hujumga uchrashiga olib keladi. Ushbu holat bugungi kunda keng tarqalayotgan eng tahdidli masalalardan hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Birinchidan, shaxsiy ma'lumotlarning sir saqlanishi, uning ma'lumot egasining roziligisiz oshkor etilishi konstitutsiyaviy normaning buzilishi hisoblanadi.

Ikkinchidan, shaxsiy ma'lumotlarning o'zga shaxslarning qo'liga tushishi natijasida tovlamachilik, firibgarlik kabi jinoyatlarning soni ortib borishiga sabab bo'ladi. Ushbu holatlar tartibga solinish va nazoratga olinishi uchun esa qonunchilikni mustahkamlash va uning ijrosini ta'minlash zarurdir.

Uchinchidan, aholining ijtimoiy tarmoqdagi huquqiy ongi va madaniyatini o'stirish bugunning muhim talabi. Bu orqali shaxslar o'z shaxsiga doir ma'lumotlarini himoya qiladilar hamda o'zgalarning shaxsiy ma'lumotlariga bo'lgan huquqlarini hurmat qiladilar.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy jihatlarini yoritib berishdan iborat. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Shaxsga oid ma'lumotlar tushunchasi, uning ijtimoiy tarmoqdagi xavfsizligini tahlil qilish;
- Shaxsga oid ma'lumotlarni himoya qilishni joriy etishdagi qiyinchiliklarni o'rganish;
- Shaxsga oid ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarda himoya qilishni samarali joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda umumilmiy usullar bilan bir qatorda tanqidiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil va statistik tahlillardan foydalanilgan.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi qonuni, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonuni, «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi qonuni, «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni hamda tegishli xalqaro hujjatlar asosida olib boriladi. Shuningdek, tadqiqot chet el tajribasini o'rganish maqsadida Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari (General Data Protection Regulation [GDPR]) asosida ham olib borildi.


Tadqiqotda statistik ma'lumotlar xalqaro „Statista“ statistik portalidan hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy portalidan olindi. Qonunchilik tahlili uchun Lex.uz O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasidan foydalanildi.

Tanqidiy tahlil amaldagi qonunchilik bazasida normalardan ushbu tadqiqotga aloqador „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“gi qonunda shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash hamda uni tarqatish masalalari yoritilgani, biroq ushbu normalar ijrosi yetarlicha emasligini ko'rsatadi. Telegram, Instagram, Facebook va shu kabi platformalarda shaxsiy ma'lumotlarning shaxs ruxsatisiz foydalanish, tarqatish shu bilan birga, undan fishing, tovlamachilik maqsadlarida foydalanish kabi holatlarning ko'p uchrayotgani va afsuski, ushbu holatni kamaytirish uchun yechimlar yetarlicha emasligi va ushbu huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarni aniqlash imkoniyatining kamligi katta muammo sifatida qaraladi. Shu bilan birga, aholining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishga doir bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirmasligi ham ushbu muammoning katta bo'lib borishiga sababchi bo'lib xizmat qilmoqda.

Qiyosiy-huquqiy tahlil rivojlangan mamlakatlarning qonunchiligi asosida amalga oshirildi. Ushbu tadqiqot davomida o'z qonunchiligida ushbu jihatlarini mustahkamlab qo'ygan rivojlangan mamlakatlardan Estoniya, Kanada, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari misol tariqasida foydalanildi.

Yevropa Ittifoqining GDPR (General Data Protection Regulation)ini shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha boshqa mamlakatlar qonunchiligi uchun ham bugungi

2025 yil fevral holatiga ko'ra ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy qoidalarni (GDPR) buzganlik uchun berilgan eng katta jarimalar (million evroda)



Ushbu ma'lumot Xalqaro „Statista“ statistik portalidan olindi

kunda asos bo'lib kelayotgan reglamentlardan biri deyish mumkin. Ushbu reglament 2018-yilda qilingan bo'lib, unda shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, foydalanish, saqlash va tarqatishga doir qoidalar aniq qilib mustahkamlab qo'yilgan. Ma'lumotlarda keltirilishicha, GDPR 1950-yildagi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa kovensiyasining bir qismidir.

To'g'rirog'i, undagi har kim o'zining shaxsiy va oilaviy hayotini, uy-joyini va yozishmalarini himoya qilish huquqiga ega" normasining kengaytirilgan, aniqlashtirilgan qonun ko'rinishi va shaklidagi yangi to'liq qonunidir. GDPR ijtimoiy tarmoqlarda umuman olganda raqamli dunyoda shaxsiy ma'lumotlarni olishda, ularni boshqarishda,

maxfiylikni amalga oshirishda, shaxsiy ma'lumotlar buzilishida yuz beradigan holatlar va bu uchun javobgarlik va jazo choralari yuzasidan kerakli normalarni o'z ichiga oladi.

Estoniya shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilishda Yevropa Ittifoqining GDPRi bilan birgalikda o'zning „Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida“gi qonunidan (Personal Data Protection Act) ham foydalanadi. Ushbu qonun 76 moddadan iborat bo'lib, u 2018 yilda qabul qilingan. Ushbu qonun raqamli olamda hukumatga, kompaniyalarga hamda jismoniy shaxslarga shaxsga oid ma'lumotlar bilan ishlashda xavfsizlikni ta'minlash kerakligini, ta'minlamaganlik esa javobgarlik va jazo choralari qo'llanishiga sabab bo'lishini belgilab qo'ygan.

Kanadaning „Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va elektron hujjatlarni himoya qilish to'g'risida“gi qonunida (Personal Information Protection and Electronic Documents Act [PIPEDA]) xususiy sektor tashkilotlari tijorat faoliyati davomida shaxsiy ma'lumotlarni xavfsizligini ta'minlashi kerakligi belgilangan bo'lib, unga ko'ra shaxsiy ma'lumotlar sifatida aynan o'sha shaxsga bog'lanish imkonini beruvchi har qanday ma'lumot va faktlar aloqadorligini belgilaydi. Bularga asosiy tafsilotlar sifatida: ism, familiya, tug'ilgan sana, yashash va turar joy manzillari, ID raqamlari; moliyaviy tafsilotlar: kredit, daromad yozuvlari, bank omonatlari; shaxsning eng muhim sirli ma'lumotlari: tibbiy ma'lumotlari, qon guruhi; fikrlar: ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar, baholar, shuningdek, intizomiy jazo choralari; ishga joylashish tafsilotlari: xodimning fayllari, ish tarixi va boshqalar kiritilgan. Ushbu qonun Kanadada shaxsga doir ma'lumotlarning sir saqlanishiga doir bo'lgan qonun bo'lib, shuningdek u o'z ichida ushbu xavfsizlikni buzganlik uchun javobgarlik va jazo choralari ham belgilab qo'ygan.

Statistik materiallarni o'rganish davomida bugungi kunda ushbu mavzuni o'rganish dolzarb ekanligi ma'lum bo'ldi. O'zbekistonda 27 milliondan ortiq kishi Internetdan

foydalanmoqda, bu esa mamlakat aholisining 77 %ni tashkil etadi (mitc.uz sayti). Shundan 5 million 300 mingdan ortig'i ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari hisoblanar ekan. Ushbu ko'rsatkich albatta yilning har chorak qismida oshib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomida istasak ham, istamasak ham o'z shaxsiy ma'lumotlarimizni qoldiramiz. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish orqali ularning jinoyatchilar qo'lga tushish xavfidan ehtiyot qilgan bo'lamiz.

TADQIQOT NATIJALARI VA UNING TAHLILI

Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilinishini huquqiy jihatdan tartibga solish muhim munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Bularni biz quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida shaxsga doir ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarda himoya qilinishiga oid bo'lgan normalar to'liq mavjud emas. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi qonuni, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida», «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi, «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunlari bugungi shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligiga doir bo'lgan qonunchilik hujjatlari hisoblanadi. Biroq ushbu qonunchilik hujjatlarida ijtimoiy tarmoqlar, ularning subyektlari o'rtasida kelib chiquvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizmlar haqida hech qanday tushunchalar mavjud emas.

Ikkinchidan, 2019-2020-yildagi butun dunyo bo'ylab tarqalgan COVID-19 davrida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Pandemiya davrida masofadan turib ham ijtimoiy, tijoriy maqsadlarimizni amalga oshrishimiz uchun sharoitlar yaratildi. Masalan, Telegram, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarda turli xildagi oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi tovarlarni sotish, buyurtma qilish orqali ular ajoyib ommaviy platformaga aylandi deya olamiz. Biroq, ushbu holda kelib chiqadigan turli xildagi adashmovchiliklar va ularga yechim hali hanuz aniq normalashtirilmagan hamda ijrosi ta'minlanmagan ham. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsning eng ko'p qidirilgan tovarlari, xizmatlari saqlanib qolishi natijasida ushbu ijtimoiy tarmoqlar ulardan foydalanuvchilarni "monipulyatsiya" qilishga urinmoqda. Monipulyatsiya o'zida narxning aynan o'sha shaxs uchun sezilarli darajada oshganini, sun'iy yuqorilaganini mujassam etadi.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda bugungi kunda shaxsiy ma'lumotlarning saqlanishi natijasida eng ko'p firibgarlik, tovlamachilik jinoyatlari avj olmoqda. Ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlardan foydalangan holda shaxsiy ma'lumot egasi nomiga turli xildagi kreditlar olish, shuningdek, o'zini turli tashkilot xodimlaridek ko'rsatgan holda "maxsus" zararli faylni yuklashni aytib, shaxsiy ma'lumotlarni qo'lga kiritib ushbu ma'lumotlarni chiqarib yubomaslik evaziga mo'maygina pul talab qilayotganlar ham yo'q emas. Ularni topish va javobgarlik hamda jazoga tortish masalalari esa hali hanuz muammoligicha qolmoqda.

Shunday qilib, shaxslarning shaxsiy huquqlari bo'lmish shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zarurati bugungi kun va kelajak uchun juda muhim va dolzarb mavzu hisoblanadi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalarini tahlil qilsak. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunining 27-moddasiga ko'ra, davlat shaxsga doir

ma'lumotlarning himoya qilinishini kafolatlaydi, deyilgan. Ammo bu holatda davlat foydalanuvchi o'z xohishi bilan ma'lumotlarni biror-bir serverga joylashtirganidan so'ng ushbu server tomonidan foydalanuvchi ma'lumotlari qonuniy ravishda ishlatilishini ta'minlash ma'suliyatini zimmasiga oladi (Abdurahmonova, 2023). Shuningdek, shaxsiy ma'lumot egalari o'z shaxsiy ma'lumotlarini ijtimoiy tarmoqqa joylash vaqtida ham xushyorlikni amalga oshirishlari lozim. Masalan, o'z rasmlarini ijtimoiy tarmoq sahifasiga joylovchi shaxsiy ma'lumot egalari undan huquqbuzarlik, tovlamachilik maqsadida foydalanishlari mumkin ekanligi haqida o'ylab ko'rishlari lozim. Biror ijtimoiy tarmoqqa yoki platformaga kirish vaqtida maxfiylik shartlarini o'qib ko'rish ham ushbu xavfsizlikni davomi hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda maxfiylik sozlamalarini yoqish orqali esa ularni xavfsizligini kerakli darajada ta'minlash mumkin. Demak, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish nafaqat davlatning, balki shaxslarning ham majburiyatidir.

MUHOKAMA

O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga doir normalar huquqiy jihatlar to'liq bo'lmasada qisqacha o'z aksini topgan bo'lib, bular, O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi qonuni, «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida», «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi qonunlarida o'z aksini topgan. Masalan, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlarini, mamlakatning ma'naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. 13-moddasida esa jismoniy shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qonunlar shaxsga doir ma'lumotlarini saqlash, tarqatish, ishlov berish kabi holatlar mustahkamlangan bo'lsada, biroq O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarning buzilishiga oid statistik ma'lumotlar mavjud emas. Ma'lumki bugungi kunda ko'pgina jinoyatlar aynan ijtimoiy tarmoqlarda bo'lib turgan davrda uning statistikasini olib bormaslik, uni prognozlash, ushbu prognoz orqali uni oldini olish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Oddiygina misolni olaylik. O'zbekistonda bugungi kunda yagona interaktiv davlat xizmatlarini olib borayotgan portal My.gov.uz ham qaysidir ma'noda shaxsga doir ma'lumotlarimiz xavfsizligini ta'minlamayotgandek. Misol uchun, ushbu portalning fuqarolik bo'limiga kirar ekansiz yashash va turar joyingizda ro'yxatda turgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Biroq, ushbu ma'lumotlar o'z ichiga ism, familiya, ota ismidan tashqari passport ma'lumotlarini ham qamrab oladi. Bu esa bizningcha shaxsga doir ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor etilishi hisoblanadi. Bugungi kunda aynan yuqorida ta'riflangandek turli huquqbuzarlik hamda jinoyatlarni aynan mana shunday ma'lumotlarni qo'lga kiritgan holda amalga oshirish mumkinligi hech birimizga sir emas. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46²-moddasiga ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash

o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari, mansabdor shaxslarga esa — ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan. Biroq, bugungi kunda ushbu huquqbuzarlik faqatgina yuqorida ko'rsatib o'tilgan harakat (harakatsizlik)ni o'zida qamrab olmagan. Yuqorida qayd etilganidek, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga doir normalar yetarlicha emas, mavjudlarining ham ijrosi qoniqarli darajada deyish mushkul.

XULOSA

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy jihatlarini yoritib berishni maqsad qilgan edi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga oid huquqbuzarliklar sezilarli darajada yuqorilab bormoqda.

Bu natijalar ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish lozim ekanligini ko'rsatdi va ushbu natijalar qonun chiqaruvchi, uni ijro etuvchi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga oid javobgarlik hamda jazo choralari kuchaytirishni tavsiya etadi.

Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasida islohotlar qilish muhimligini o'zida aks ettirdi hamda qonuchilik tashabbuslariga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

№	Muammo	Tavsiya va takliflar
1.	Shaxslarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga oid bilim va ko'nikmalar yetishmasligi	Ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga doir ma'lumotlarni berib borish
2.	Huquqiy tartibga solish masalalari	Qonunchilikni takomillashtirish, raqamli olamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid hamda jazo choralari kuchaytirish
3.	Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarida kiber huquq bo'yicha yetarli bilim va malaka yetishmasligi	Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini maxsus tayyorgarliklardan o'tkazish, kiber jinoyatlarni fosh etishda raqamli dalillarni to'plash hamda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish

4.	Xalqaro darajada hamkorlik yetishmasligi	Kiber huquq bo'yicha rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikni amalga oshirish, ulardagi yangiliklarni O'zbekistonda ham sinovdan o'tkazib, muvaffaqiyatli amalga oshirish
----	--	--

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-4396419>
2. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-52268>
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-1319>
4. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-83472>
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi <https://lex.uz/docs/-97664>
6. The number of Internet users in the world. International statistics portal. Available at: <https://www.statista.com/statistics/273018/number-of-internet-users-worldwide/>.
7. Qi M., Edgar-Nevill D. (2011). *Social networking searching and privacy issues*. Information Security Technical Report
8. O'zbekiston Respublikasida Internetdan foydalanuvchilarning soni [The number of Internet users in the Republic of Uzbekistan]. The official website of the Ministry of Information Technologies and Communications Development of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://mitc.uz/uz/stat/4/>.
9. Abdurahmonova, N. (2023). *Shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi ijtimoiy tarmoqlarda ham ta'minlanishi shart*. "Yangi O'zbekiston" gazetasi.
10. Xo'jayev, Sh. (2022). *Ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish zarurati*. "Yuridik fanlar axborotnomasi" huquqiy ilmiy-amaliy jurnal